

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ
ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИНГЛИЗ ТИЛШУНОСЛИГИ КАФЕДРАСИ**

ТИЛ ВА ТИЛ ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ

**(Инглиз тилшунослиги кафедраси олимаси
М.Қ.Абдуллаева таваллудининг 80 йиллигига
бағишланади)**

**мавзусидаги Университет миқёсидаги ОНЛАЙН
илмий-амалий анжумани материаллари
ТЎПЛАМИ**

BUKHARA STATE UNIVERSITY

**30-oktabr
2020-yil**

OUR KNOWLEDGE IS A BIG SUCCESS IN LIFE

**Department
Eng**

**SOAT
10:00**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI XORIJIY TILLAR FAKULTETI
INGLIZ TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI
TIL VA TIL O'QITISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI**

**UNIVERSITET ILMIY-AMALIY ONLAYN ANJUMANI
(KAFEDRA OLIMASI M.Q.ABDULLAYEVA TAVALLUDINING 80
YILLIGIGA BAG'ISHLANADI)**

**QAYSI TILLARDA
O'ZBEK, RUS, INGLIZ**

**Manzil: Buxoro davlat
universiteti,
Buxoro shahar M.Iqbol
ko'chasi 11-uy.**

БУХОРО – 2020

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ
ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИНГЛИЗ ТИЛШУНОСЛИГИ КАФЕДРАСИ**

ТИЛ ВА ТИЛ ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ

**(Инглиз тилшунослиги кафедраси олимаси
М.Қ.Абдуллаева таваллудининг 80 йиллигига
бағишланади)**

**мавзусидаги Университет миқёсидаги ОНЛАЙН
илмий-амалий анжумани материаллари
ТЎПЛАМИ**

БУХОРО – 2020

Тил ва тил ўқитишнинг замонавий муаммолари (Инглиз тилшунослиги кафедраси олимаси М.Қ.Абдуллаева таваллудининг 80 йиллигига бағишланади): мақола ва тезислар тўплами, тўпловчи ва нашрга тайёрловчи: М.А.Шукурова, О.И.Жумаева, И.И.Акрамов; Бухоро; “Дурдона” нашриёти, 2020 йил, 273 бет.

Тўпланда республикамиз олимлари, катта илмий ходим-изланувчилари ва мустақил изланувчиларининг хорижий тилларда ўқув ва бадий адабиётлар, электрон дарсликлар, ихтисослаштирилган расмлар билан безатилган газеталар ва журналларни яратиш ҳамда чоп этиш самарадорлигини ошириш, ёшларда чет тилни эгаллаш даражаларининг Европа тизими (CEFR)ни ўрганишнинг ўрни, ёшларга чет тилини ўргатишнинг психологик аспекти, чет тилини ўрганишда тил хусусиятларининг аҳамияти ва муаммолари, тил ва маданиятлараро коммуникация методлари, тилшунослик ва адабиётшунослик масалалари, услубшунос олимларнинг илғор тажрибаларининг роли каби масалалар талқинига бағишланган мақолалари ўз ифодасини топган. Тўпланда тил муаммолари билан қизиқувчи илмий ходимлар, катта илмий-ходим изланувчилар, мустақил тадқиқотчи-изланувчилар, магистрантлар ва ўқувчилар фойдаланишлари мумкин.

Тахрир хайъати:

Проф. О.Х.Хамидов, и.ф.ф.д. (PhD), доц. О.С.Қахҳоров, проф. М.Қ.Бақоева, проф. Д.С.Ўраева, ф.ф.д. М.М.Жўраева, масъул муҳаррир ф.ф.н., доц. З.И.Расулов, масъул котиба М.А.Шукурова

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи:

Инглиз тилшунослиги кафедраси ўқитувчилари: М.А.Шукурова,
О.И.Жумаева, И.И.Акрамов;

Такризчилар:

Филология фанлари номзоди, доцент М.Ҳ.Алимова
Филология фанлари номзоди, доцент Н.Б.Бакаев
Филология фанлари номзоди, доцент З.Б.Тошев

Тўпланим БухДУ Хорижий тиллар факультети кенгашида муҳокама қилинган ва нашрга тавсия қилинган (2020 йил 29 октябрдаги 3-сонли баённома)

foydalanish lozim. Murakkab mavzularni o'quvchilar ongiga singdirish uchun pedagogic texnologiyalarning turli xil metod (usul)laridan "Aqliy xujum", "Klaster", "Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash", "BBB (Bilaman. Bilishni xoxlayman. Biliboldim.),"Nilufar guli", "Pinbord" metodlari shular jumlasidandir. Amaliy mashg'ulotlarda xorijiy tilni o'qitishning asosiy, tarkibiy qismlari- bu tinlab tushunish, gapirish, o'qish va yozishni kompleks holda integrallashtirib olib borishdan iborat. Albatta, xorijiy tilni o'rgatishning turli metod hamda texnologiyalari ko'payib bormoqda. Bulardan o'rganuvchilarning yosh, kasb, qiziqish kabi xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish o'z samarasini beradi. Harqanday xorijiy tilni o'rgatishning dastlabki davrlaridan boshlab o'rganuvchilarga kundalik hayotda kerakli iboralar kichik-kichik dialoglar, Grammatik o'yinlar berib borilishi tavsiya etiladi. Bu usullar o'rganuvchilarga shu tilga bo'lgan qiziqishni orttiradi. Keyinchalik mavzular, usullar, texnologiyalar o'zgarib, murakkablashib boradi.

Bunda debat, intervyu, musobaqa kabi o'yin turlaridan keng foydalanish o'rganuvchining erkin, mustaqil, mantiqiy fikrlarini rivojlantiradi, o'rganuvchilarni nutqiy muloqotga va dialoglarda erkin qatnashishga tayyorlab boradi. Bu esa o'rganuvchilarning fikrlash, o'ylash, xulosa qilish kabi qobiliyatlarini o'stirishda samarali usul hisoblanadi. Chet tillarni mustahkam va mukammal o'rganishda albatta amaliy mashqlarning o'rni yuqori. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu jarayon yangi, zamonaviy pedagogic texnologiyalarga suyangan holda amalga oshirilsa, o'rganuvchilarning tilga va o'quv mashg'ulotiga bo'lgan qiziqishi yanada jadallashadi. Muallim-o'qituvchi mavzuni o'tishdan oldin, tashkiliy qismdan so'ng "Aqliy hujum" metodidan foydalanib, o'rganuvchilarning bilim saviyalarini sinab olishi kerak bo'ladi.

Xulosa qilib aytish kerakki, chet tillarni o'rgatishda pedagogic texnologiyalar yordamida talabalarni darsga jalb qilib, fanga bo'lgan qiziqishi va mehrini ortishiga kerakli omil bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jalolov J. Chet tilini o'qitish metodikasi.- Toshkent. "O'qituvchi nashriyoti" 1996 y.
2. Saydaliev S. Chet til o'rgatish metodikasidan ocherklar. -Namangan.- 2004.

CHET TILIDA GAPIRISH KO`NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHA METODIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

*Umurova X.X.
BuxDU, katta o`qituvchi*

Hozirgi zamonda o'qituvchilar chet tilini o'qitish jarayonida kommunikativ va nutq ko'nikmalarini shakllantirishda chet tilini o'qitishning asosiy vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshiradigan zamonaviy samarali ijodiy yondashuvlardan biri sifatida loyiha metodologiyasidan foydalanmoqdalar.

Loyiha usulining asosiy maqsadi talabalarga amaliy mavzular yoki turli fanlardan bilimlarni birlashtirishni talab qiladigan muammolarni hal qilish jarayonida mustaqil ravishda bilim olish imkoniyatini berishdir. Pedagogik texnologiya sifatida loyihalar usuli tabiatan ijodiy xususiyatga ega bo'lgan izlanishlar, muammoli usullar to'plamini o'z ichiga oladi. Loyihada o'qituvchi dasturchi, muvofiqlashtiruvchi, ekspert va maslahatchi sifatida tayinlanadi.

Ushbu texnologiya o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi va ularning tasavvurlari va qiziquvchanliklarini rivojlantiradi. Loyihalarni tayyorlash jarayonida talabaning ijodiy va intellektual salohiyati namoyon bo'ladi. Loyihalar usuli tadqiqot ishlarini olib borishni, jamoada ishlashni, munozaralar olib borishni, muammolarni hal qilishni o'rgatadi. Loyiha uslubidan deyarli har qanday mavzu bo'yicha chet tilini o'qitishda foydalanish mumkin.

Ma'lum muddatdan so'ng loyiha guruhlar tomonidan himoya qilinadi. Har bir guruh o'z taqdimotini o'tkazadi. Bunday vazifalar talabalar uchun juda qiziqarli, ular bunday ishlarni bajarish uchun javobgarlikni his qilishadi. Shu bilan birga, ular Microsoft Power Point dasturi bilan ishlash, qiziqarli materiallar va kerakli ma'lumotlarni izlab topish, uni tahlil qilib, tizimlashtirish, tinglovchilarni jalb qilgan holda prezentatsiya qilish qobiliyatini o'zlashtiradilar va namoyish paytida talabalar notiqlik mahoratini, o'z nuqtai nazarini isbotlash va himoya qilish qobiliyatini rivojlantirishni, berilgan savollarga atroflicha javob berishni o'rganadilar, ular jamoat oldida so'zlashdan qo'rqmaydilar va o'zlariga ishonadilar.

Talabalarning guruhda ishlashi bir qancha afzallilarga ega. Jumladan, talaba loyiha ishi davomida o'z g'alar fikrini tinglay olish, uni hurmat qilish va kezi kelganda o'z fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashish, topilgan ma'lumotlarni tahlil qilib, keraklisini tanlay olish, vaqtni to'g'ri taqsimlash, ishni rejalashtirish va boshqa shu kabi malakalarga ega bo'lishadi.

Zamonaviy jamiyat hayoti talabalardan o'z fikrlarini erkin bayon eta olish, tajriba orttirish, dalillar zanjirini tuzish, maqsadlarini aniq va ishonch bilan ifoda etish qobiliyati kabi qobiliyatlarni talab qiladi. Shu bilan birga, talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish amaliy ahamiyat kasb etadi. Tanqidiy fikrlash individual xususiyatga ega, talabalarning har biri o'z g'oyalarini ishlab chiqadi, mustaqil ravishda o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi, muammoga yechim izlaydi va uni oqilona, asosli va ishonarli dalillar bilan qo'llab-quvvatlaydi.

Tanqidiy fikrlash ijtimoiy xususiyatga ega, chunki har bir fikr bayon etilganda sinovdan o'tadi. O'quvchining o'ziga xos faol hayotiy pozitsiyasi, avvalgi bilim va tushunchalarni yangi olinganlar bilan taqqoslashda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishni o'z ichiga oladigan turli xil ish turlari (insholar, insholar asosida mulohaza qilish, munozara, suhbat, rolli o'yinlar va boshqalar) mavjud bo'lib, ulardan dars davomida samarali foydalanish o'qituvchining mahorati, tajribasi va darsni rejalashtira olish qobiliyatiga bo'g'liq.

Shunday qilib, loyiha texnologiyasi chet tillarni o'qitish jarayonini sezilarli darajada boyitadi va uni rang-barang qiladi, shuningdek, talabdan ijodiy izlanishni talab qiladi. Bu texnologiya talabalarning nutq malakalarini rivojlantirishga, prezentatsiya qila olish ko'nikmasini shakllantirishga, talabaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga yo'naltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. J.J.Jalolov, G.T. Mahkamova, Sh.S. Ashurov. English language teaching methodology. Tashkent: O'qituvchi, 2015.
2. K.Johnson, K.Morrow. Communication in the classroom: applications and methods for a communicative approach. Harlow: Longman, 1981

CHET TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI VA AHAMIYATI

Usmonova Z.H.

Ingliz tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib bormoqda, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayoning ajralmas qismiga aylanib borayotgan unda o'zini ma'lum xususiyatini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizual, audio vositalar ham mavjud bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni real voqelikka aylantiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya mohiyati nuqtai nazaridan boshqa texnologiyalar bilan bir qatorda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir.[1,211] Ammo pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga tushunarli bo'lmagan texnologik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish va axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos xususiyati-tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidadir. Chet tili darslariga ilg'or pedagogik texnologiyalarni olib kirish, uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Bunda o'qituvchiga dars o'tish qulay va jonli bo'lishi uchun turli ko'rgazmali qurollar ishlab chiqish va ularni o'z vaqtida va dars jarayonida qo'llash, zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish lozim. Murakkab mavzularni o'quvchilar ongiga singdirish uchun pedagogik texnologiyalarning turli xil metod (usul)laridan "Aqliy xujum", "Klaster", "Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash", "BBB (Bilaman.Bilishni xoxlayman.Bilib oldim.)", "Nilufar guli", "Pinbord" metodlari shular jumlasidandir. Amaliy mashg'ulotlarda xorijiy tilni o'qitishning asosiy, tarkibiy

Akobirova Z. Doctoral students: relationships between involvement in academic-social activities and self-perceived academic gains.....	188
Shimchuk A.O. English grammar as an aspect of the language and a subject of instruction in comprehensive school.....	191
Гафурова Н.Н. Английский как второй язык.....	193
Yunusova P. Modern approaches in teaching young learners.....	195
Solieva M.A. Peculiarities of modular approach in teaching.....	197
Nosirova D.M. Boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'rgatish xususiyatlari.....	199
Ruziyeva N.Z. Ingliz tilini o'rgatishda pedagogik texnologiyalarning muhim o'rni.....	203
Umurova X.X. Chet tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirishda loyiha metodidan foydalanishning ahamiyati.....	204
Usmonova Z.H. Chet tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligi va ahamiyati.....	206
Mukhammadiyeva N.M. Component of professional competencies of young teachers.....	210
Yuldasheva F.E., Gulomov Sh. Skills segregation versus skills integration in university education.....	211
Yuldasheva F.E. Important factors in choosing authentic reading material.....	215
Yunusova A.A. Peer evaluation in process writing.....	218
Хикматова Д.П. Педагогические технологии и их применение на уроках английского языка.....	222
Бозорова Н.Х. Фонетические аспекты усвоения русского языка учащимися и основные ошибки в речи.....	225
Babayeva V.T., Ruzayeva F. Chet tili darslarida muammoli o'qitish metodi.....	228
Садуллаев Б.Б. Дарс жараёнларида ишчан ўйинларнинг ўқувчилар орасида дўстона муносабатлар ва ҳамкорликни шакллантиришдаги педагогик шарт-шароитлари.....	232
Makhammadov B. The types of distant education and its comparison with tradition learning.....	235
Xaitova D.U. 1-sinf o'qish darsligida kitob hamda kitobsevarlik haqidagi mavzularning yoritilishi va ularning pedagogik ahamiyati.....	238
Саидова З.Т. Важность метода преподавания фонетики английского языка.....	241
Bobokhujayeva Z. The importance of technology in teaching and learning a foreign language.....	245
Islomova G. Distance learning and its importance in modern life.....	247
Sidiqova N.N. Modern educational technologies in teaching foreign languages.....	249
Jumaeva G.I. Features of teaching the phonetic side of language.....	250
Xaydarova L.X. Chet tili o'qitishda aqliy hujum metodidan foydalanish.....	252